RAQOBQT BARDOSHLIKNI OSHIRISHDA MEHMONXONA INNOVATSIYALARINING STRATEGIK AHAMIYATI	904
<i>Usmanova Gulida Valiyevna</i>	
KO'CHMAS MULK QIYMATINI OMMAVIY BAHOLASH UCHUN KOB-DUGLAS GIBRID MODELINI QO'LLASH	910
<i>Xushvaqtov Jasur Shuhrat o'g'li</i>	
SANITARNO-ZASHITNAYA ZONA KAK INSTRUMENT OHRANI OKRUZHAJOUSHAY SREDDY PRI REALIZACII KRUPNOMASHTABNYYH ENERGETICHESKYYH PROEKTOV (NA PRIMERE SHERABADSKOY SOLNECHNOY FOTOELEKTRICHESKOY STANЦИИ V RESPUBLIKE UZBEKISTAN)	919
<i>Omandavlatov Sirojiddin Sodikovich</i>	
ZAHARLI CHIQUINDILARNING ATROF-MUHIT VA INSON SALOMATLIGIGA TA'SIRINI KOMPLEKS BAHOLASH	924
<i>Ruziyeva Iroda Davutovna, Mavlonova Shaxnoza Raxmatovna</i>	



ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЕ ТРАНСПОРТНЫЕ СИСТЕМЫ НА ОСНОВЕ VANET ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ БЕЗОПАСНОСТИ ДОРОЖНОГО ДВИЖЕНИЯ.....	930
Лазарев Амир Пишембаевич, Шахобиддинов Алишер Шопатхиддинович	
STRENGTHENING THE FINANCIAL RESOURCE BASE OF COMMERCIAL BANKS IN THE CONTEXT OF DIGITALIZATION.....	938
Dilnoza Xaitboyeva	
SHAHAR INFRATUZILMASIDA NOGIRONLIGI BOR SHAXSLAR UCHUN TO'SIQSIZ MUHITNI TASHKIL ETISHDA XALQARO YONDASHUVLAR	941
Karimova Laziza Jaxongir qizi	
BANK RISKLARINI BOSHQARISHDA RISK-APPETIT TUSHUNCHASI VA UNI SHAKLLANTIRISH STRATEGIYALARI	946
O'ktamova Nozima Narzulla qizi, Mirzaraximova Nurhayot Bahrom qizi	
O'ZBEKISTONDA MILLIY TAOMLARNING TURISTLAR SAYOHAT MOTIVATSIYASIGA TA'SIRINI BAHOLASH	950
Turayev Ziyadulla Norsoatovich	
O'ZBEKISTONDA TURIZM TURLARINI TRANSFORMATSIYALASH VA DIVERSIFIKATSIYALASH CHEGARALARINI TIZIMLI TAHLIL ASOSIDA ANIQLASH USLUBIYOTLARI	956
Saidova Dilfuza Abdufattohovna	
ISTE'MOL NARXLARI INDEKSINI HISOBLASHDA KUZATUV QAMROVI, MA'LUMOTLAR MANBALARI VA VAZNLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	964
Ismailova Shaxnoza Uktamovna	
O'ZBEKISTONDA UY-JOY NARXLARI INDEKSINI HISOBLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING INTEGRALLASHGAN MODEL I	969
Tog'ayeva Dildora Akramovna	



O'ZBEKISTONDA UY-JOY NARXLARI INDEKSINI HISOBLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING INTEGRALLASHGAN MODELI

Tog'ayeva Dildora Akramovna

O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining
Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti mustaqil izlanuvchisi
E-mail: dildar.akramovna@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada O'zbekistonda uy-joy narxlari indeksini (RPPI) shakllantirish metodologiyasidagi asosiy o'zgarish sifatida hisoblashning hedonik regressiya usuliga o'tish ilmiy jihatdan asoslab beriladi [1; 2]. Shuningdek, avvalgi va yangi yondashuvlar hamda IMF tavsiyalari qiyosiy tahlil qilinib, milliy amaliyot uchun integrallashgan model taklif etiladi.

Kalit so'zlar: uy-joy narxlari indeksi, RPPI, hedonik regressiya, time-dummy modeli, sirg'anchiq oyna, stratifikatsiya, zanjirlash, bazaga bog'lash, vaznlash, constant-quality indeks, OLX e'lonlari, notarial ma'lumotlar, chet qiymatlar filtrlashi, Cook's Distance, kvartiralar bozori, hovlilar bozori.

Abstract. This article provides a scientific justification for the transition to hedonic regression as the key methodological shift in compiling the Residential Property Price Index (RPPI) in Uzbekistan [1; 2]. It presents a comparative analysis of the previous and new approaches, along with IMF recommendations, and proposes an integrated model for national practice.

Keywords: residential property price index, RPPI, hedonic regression, time-dummy model, rolling window, stratification, chaining, rebasing, weighting, constant-quality index, OLX listings, notarial data, outlier filtering, Cook's Distance, apartment market, house market, hybrid data sources.

Аннотация. В статье научно обосновывается переход к гедонической регрессии как ключевое методологическое изменение в системе расчёта индекса цен на жильё (RPPI) в Узбекистане [1; 2]. Проведён сравнительный анализ прежнего и нового подходов, а также рекомендаций IMF, и предложена интегрированная модель для национальной практики.

Ключевые слова: индекс цен на жильё, RPPI, гедоническая регрессия, time-dummy модель, скользящее окно, стратификация, цепной индекс, привязка к базе, взвешивание, индекс постоянного качества, данные OLX, нотариальные данные, фильтрация выбросов, Cook's Distance, рынок квартир, рынок индивидуальных домов.

KIRISH

O'zbekiston uy-joy bozori so'nggi yillarda makroiqtisodiy tahlilda mustaqil kuzatilishi zarur bo'lgan muhim segmentga aylandi. Turar joy narxlarining o'zgarishi nafaqat ko'chmas mulk sektori, balki kredit bozori, investitsiya faolligi, inflyatsion kutilmalar va hududiy rivojlanish jarayonlariga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Shu sababli milliy statistika tizimi uchun bozor segmentlari farqlarini aks ettira oladigan, xalqaro standartlarga mos va amaliy jihatdan barqaror metodika zarur. Oddiy o'rtacha narxlar esa ushbu vazifani yetarli darajada to'liq aks ettira olmaydi, chunki ular sifat tarkibidagi o'zgarishlarni narx dinamikasidan ajratishda cheklangan imkoniyatlarga ega.

Maqolaning maqsadi — yangi metodikadagi eng muhim yangilik, ya'ni hedonik regressiya metodiga o'tishni ilmiy jihatdan asoslash, uning afzalliklarini ochib berish hamda O'zbekiston sharoitiga mos integrallashgan modelni taklif etishdan iborat.

MAVZUGA OID DABIYOTLAR SHARHI

Xalqaro adabiyotlarda RPPI uchun yagona universal usul mavjud emasligi, bozor geterogenligi sababli stratifikatsiya, takroriy savdolar va hedonik modellarning kombinatsiyasidan foydalanish maqsadga muvofiq ekani ta'kidlanadi. RPPI Handbook aynan sifat o'zgarishini nazorat qiluvchi usullarni ustuvor deb hisoblaydi [3].

Stratifikatsiya yondashuvi amaliy jihatdan sodda va tushunarli bo'lsa-da, qatlam ichidagi obyektlar tarkibi tez o'zgargan sharoitda indeks tarkibiy siljishlar ta'siriga ma'lum darajada duch kelishi mumkin.

Hedonik regressiya ushbu cheklovni sezilarli darajada yumshatadi: narx uy-joy atributlari va vaqt omilining funksiyasi sifatida baholanadi, time-dummy koeffitsiyentlari esa sifatdan tozalangan narx o'zgarishini ifodalaydi.

Adabiyotlar zanjirlash (chaining), rolling window va vaznlash yondashuvlarining ham muhimligini ko'rsatadi. Shu bois metod tanlashda nafaqat nazariy asoslanganlik, balki mavjud ma'lumotlar bazasi va institutsional imkoniyatlar ham e'tiborga olinadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolaning axborot bazasi eski va yangi milliy metodik hujjatlar, IMF texnik missiyasi materiallari hamda RPPI bo'yicha xalqaro qo'llanmalardan iborat. Ular tarkib, ma'lumot manbalari, model spetsifikatsiyasi va agregatsiya qoidalari bo'yicha qiyosiy tahlil qilindi.

Tadqiqot metodologiyasi qiyosiy tahlil, kontent tahlil va metodik umumlashtirish yondashuvlariga asoslandi. Asosiy mezonlar sifat o'zgarishini nazorat qilish, hududiy vakillilik, barqarorlik, takror ishlab bo'ladigan hisoblash algoritmi hamda statistik relizlarning shaffofligidan iborat bo'ldi.

Illustrativ sonli misollar rasmiy yakuniy ko'rsatkich sifatida emas, balki yangi metodika mantig'ini tushuntirish vositasi sifatida talqin qilindi.

Shu asosda ma'lumotlar sifati, strata hajmi, vaznlar, chet qiymatlar va model diagnostikasi alohida tahlil mezonlari sifatida baholandi.

O'zbekistonda uy-joy narxlari metodologiyasining evolyutsiyasi.

Eski metodikada bozor segmentlari bo'yicha 1 kvadrat metr narxlarining o'rtacha darajasi va ularning nisbiy o'zgarishlari asosiy tayanch sifatida qo'llanilgan. Ushbu yondashuv sodda va amaliy bo'lsa-da, tarkibiy siljishlarni to'liq aks ettirish imkoniyati ma'lum darajada cheklangan.

Bozor tarkibi davrlar kesimida bir xil bo'lmagani sababli oddiy o'rtacha narxlar ayrim hollarda sifat o'zgarishlarini ham narx o'zgarishi sifatida ifodalashi mumkin. Shu holat yanada mukammal va aniqligi yuqori usullardan foydalanish zaruratini yuzaga keltiradi.

Yangi uslubiy qo'llanmadagi eng muhim yangilik zanjirlashning o'zida emas, balki indeksni hedonik regressiya koeffitsiyentlari asosida hisoblashga o'tilganidadir. Zanjirlash, bazaga bog'lash va agregatsiya jarayonlari esa aynan ushbu regressiya natijalarini rasmiy indeks ko'rsatkichiga aylantiruvchi texnik bosqichlar sifatida xizmat qiladi.


1-jadval. Eski va yangi uslubiy qo'llanma va integrallashgan modelning qiyosiy tavsifi

Mezon	Eski metodika	Yangi metodika	Taklif etilayotgan integrallashgan model
Hisoblash asosi	Stratifikatsiya, o'rtacha narxlar, choraklik indekslar	Siljuvchi oyna, eksponentlash, bazaga bog'lash, zanjirlash	Sirg'anchiq oyna hedonik regressiyasi, zanjirli agregatsiya va ma'lumotlar auditini birlashtiradi
Ma'lumot manbai	So'rov, e'lon, agentliklar va kuzatuv tarmog'i	OLX va metodik ilovadagi strata koeffitsiyentlari, agregatsiya jadvallari	E'lonlar asosiy manba; notarial tranzaksiya sonlari va an'anaviy ma'lumotlari bilan gibridlashtiriladi
Sifat nazorati	An'anaviy filtrlash va shartli tekshiruvlar	Bosqichma-bosqich hisoblash nazorati	Cook's Distance, missing values monitoringi, koeffitsiyentlar diagnostikasi, relizdan oldingi audit
Bozor segmentlari	Birlamchi va ikkilamchi bozor ajratiladi	Kvartiralar segmentatsiyasi chuqurlashgan	Kvartira va hovli uchun alohida modellar; birlamchi/ikkilamchi farqlanishi saqlanadi
Vaznlash	Notarial ma'lumotlarga asoslangan	E'lonlar tuzilmasi bo'yicha aniq ulushlar	Notarial tranzaksiya soni $\times$ e'lon median/mean narxi asosida xarajat ulushi
Natija	Shaffof, ammo tarkibiy siljishlarga sezgir	Aniqroq va qiyoslanuvchanroq	Xalqaro standartlarga yaqin doimiy sifatga keltirilgan indekslar tizimi



IMF ekspert missiyasi tavsiyalari va ularning ilmiy ahamiyati

2025-yilda o'tkazilgan IMF texnik missiyasi O'zbekiston RPPI tizimini xalqaro standartlarga yaqinlashtirish nuqtai nazaridan muhim bosqich bo'ldi. Hisobotda kvartiralar va hovlilar bo'yicha katta hajmdagi saralangan e'lonlar bazasi shakllangani qayd etiladi [4]. Mazkur hajm hedonik regressiya, siljuvchi oyna hamda chet qiymatlar diagnostikasi uchun yetarli statistik asos yaratishini ko'rsatadi.




1-rasm. IMF missiyasi qayd etgan usable e'lonlar hajmi ¹

Manba: [4] asosida muallif vizualizatsiyasi.

Metodologik jihatdan eng muhim tavsiya — time-dummy hedonik regressiyani sirg'anchiq oyna asosida rasmiy hisoblash usuli sifatida qo'llashdan iborat. Bunda regressiya har bir yangi chorakda yangilanadi va indeks o'zgaruvchan bozor tarkibidan tozalangan holda baholanadi.

Shuningdek, Cook's Distance va boshqa filtrlash usullari orqali chet qiymatlarni aniqlash hamda ularni hisobga olish tartibini takomillashtirish, har bir strata va oyna kesimida diagnostika olib borish tavsiya etiladi. Bu yondashuv model sezgirligini pasaytiradi va natijalarning barqarorligini oshirishga xizmat qiladi.

Vaznlash bo'yicha tavsiya e'lonlar soniga emas, balki bitimlar soni va median narxlarga ko'proq tayanishni nazarda tutadi. Natijada hududlar ulushi bozorning haqiqiy hajmiga yanada yaqinroq aks ettiriladi.



2-rasm. E'lon ma'lumotlarining hududiy konsentratsiyasi

¹ IMF hisobotidagi usable e'lons iborasi model qurishdan oldin tozalash va filtrdan o'tkazilgan kuzatuvlar to'plamini anglatadi.

Hovlilar segmenti uchun alohida model talab etilishi asoslab berildi, chunki yer maydoni, bino turi va joylashuv kabi atributlar kvartiralaridan sezilarli darajada farq qiladi. Demak, yagona universal spetsifikatsiya barcha segmentlar uchun yetarli darajada mos kelmasligi mumkin.

Umuman olganda, time-dummy yondashuvi kuzatilayotgan obyektlarning sifati bir xil bo'lmagan sharoitda narx o'zgarishini yanada aniqroq ajratish imkonini beradi va shu sababli rasmiy RPPI hisoblashda ustuvor metodlardan biri sifatida baholanadi.

Maqolada tavsiya etilayotgan bazaviy model quyidagi ko'rinishda ifodalanadi:

Time Dummy Variable Method

$$\ln(P_n^t) = \beta_0 + \sum_{t=1}^T \delta^t \times D_n^t + \sum_{k=1}^K \beta_k \times z_{n,k}^t + e_n^t$$

TAHLIL VA NATIJALAR

Shunday qilib, metodikadagi asosiy o'zgarish narx nisbatlari formulalaridan regressiya yondashuviga o'tish bilan bog'liq bo'lib, qolgan formulalar aynan ushbu regressiya natijalarini barqaror rasmiy qatorga aylantirishga xizmat qiladi.

Shu o'rinda muhim ilmiy xulosani ta'kidlash lozim: yangi metodikadagi chiziqli grafikda kuzatiladigan o'sish yoki pasayishlar har doim ham bozorning yakuniy "haqiqiy narx tendensiyasi" sifatida talqin etilavermaydi. IMF hisobotida kuzatuv davrining nisbatan qisqa ekanligi va ayniqsa eksperimental qatorlar bo'yicha makroiqtisodiy xulosalarni ehtiyotkorlik bilan chiqarish zarurligi qayd etilgan [4]. Demak, integrallashgan modelda natijalarni faqat e'lon qilish bilan cheklanib qolmay, balki foydalanuvchilarga ularning shakllanish mexanizmi, qo'llanilgan ma'lumot manbalari hamda talqin qilish shartlari haqida ham tushuntirish berish maqsadga muvofiqdir.

Demak, time-dummy modeli nafaqat narx darajasini, balki sifat farqlaridan tozalangan nisbiy o'zgarishni ham baholaydi.

Amaliy hisob-kitoblarda mazkur regressiyani har bir strata bo'yicha alohida baholash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki birlamchi va ikkilamchi bozor, shuningdek, kvartiralar va hovlilar segmentlari narxni shakllantiruvchi omillariga ko'ra sezilarli darajada farqlanadi. Shu bois kvartiralar uchun area, rooms, floor, wall material, district va market type kabi o'zgaruvchilar, hovlilar uchun esa house area, land area, location va infratuzilma bilan bog'liq atributlar ustuvor ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuv modelning iqtisodiy mazmunini kuchaytiradi hamda bozor geterogenligini statistik jihatdan yanada aniqroq aks ettirish imkonini beradi.

Time-dummy regressiya rolling window tamoyili bilan birlashtirilganda uning amaliy ahamiyati yanada ortadi. Bunda model butun qator uchun bir martalik baholash bilan cheklanmay, balki ketma-ket to'rt chorakdan iborat oynalar bo'yicha qayta baholanadi (masalan, 2024Q1–2024Q4, so'ng 2024Q2–2025Q1 va hokazo). Natijada bozor tarkibi, xaridor afzalliklari va hududiy premiyalarning vaqt bo'yicha o'zgarishi hisobga olinadi. Ushbu yondashuv eski ma'lumotlar ta'sirini kamaytirib, joriy bozordagi narx signallarini yanada aniqroq aks ettiradi hamda indekslarning keyingi relizlarda keskin qayta ko'rib chiqilish ehtimolini pasaytiradi.

Mazkur modelni joriy etishda diagnostika masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Har bir strata va har bir sirg'anchiq oyna bo'yicha Adjusted R², koeffitsiyentlarning ishorasi va statistik ahamiyati, Cook's Distance asosida ta'sirchan kuzatuvlar ulushi, shuningdek model natijalarining oynalararo barqarorligi tekshirilishi lozim. Agar ayrim o'zgaruvchilar bo'yicha koeffitsiyentlar iqtisodiy mantiqqa mos kelmasa yoki modelning izohlash qobiliyati sezilarli darajada pasaysa, bu holat ma'lumotlarni qo'shimcha tozalash, stratalarni qayta ko'rib chiqish yoki regressiya spetsifikatsiyasini soddalashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Shu tariqa, time-dummy hedonik regressiya maqolada taklif etilayotgan integrallashgan modelning alohida komponenti emas, balki uning metodologik markazi sifatida namoyon bo'ladi. Uning asosiy afzalligi shundaki, indeks oddiy o'rtacha narxlar o'zgarishiga emas, balki sifat jihatidan taqqoslanadigan uy-joylar narxining "sof" dinamikasiga tayanadi. Demak, stratifikatsiya, vaznlash, bazaga bog'lash va zanjirlash muhim ahamiyatga ega bo'lsa-da, ular hedonik regressiya asosida olingan natijalarni rasmiy statistik qatorga aylantiruvchi yordamchi elementlar sifatida qaraladi.

Time-dummy yondashuvining amaliy mazmunini yanada aniqroq yoritish maqsadida, quyida modelning asosiy o'zgaruvchilari va ularning kutiladigan iqtisodiy talqinlari bo'yicha jadval, shuningdek indeksni shakllantirish bosqichlarini ifodalovchi sxematik chizma keltiriladi.




2-jadval. Time Dummy hedonik regressiya modelining asosiy o'zgaruvchilari va iqtisodiy talqini

O'zgaruvchi	Belgilanishi	Kutiladigan ta'sir yo'nalishi	Izoh
Uy-joy maydoni	Area	musbat	Maydon oshishi bilan, boshqa omillar o'zgarmasa, narx odatda ortadi.
Xonalar soni	Rooms	musbat	Xonalar soni uy-joy funktsionalligini oshiradi va narxga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.
Qavat / qavatlilik	Floor / Floors	shartli	Ta'sir yo'nalishi hudud, bino turi va bozor segmentiga qarab farqlanishi mumkin.
Joylashuv	Location	musbat / manfiy	Markaziy yoki talab yuqori hududlar narxni oshiradi; periferik hududlarda ta'sir sustroq bo'lishi mumkin.
Devor materiali	WallMat	sifat effekti	Qurilish sifati va uzoq muddatli ekspluatatsiya xususiyatlari narx farqini shakllantiradi.
Bozor turi	MarketType	segment effekti	Birlamchi va ikkilamchi bozor narx dinamikasi hamda sifat tarkibi bo'yicha farqlanadi.
Vaqt dummy	D_t	asosiy indeks komponenti	Mazkur koeffitsiyentlar constant-quality narx o'zgarishini ajratib beradi.

Qiyosiy natijalar va ilustrativ (taqqoslash uchun keltirilgan) hisob-kitoblar

Yangi metodika ilovasidagi taqqoslovchi ko'rsatkichlar 2024Q1-2025Q3 davrida kvartiralar bozorida nisbatan mo'tadil, ammo segmentlar va hududlar bo'yicha farqlanuvchi dinamikani ko'rsatadi. Bu ilustrativ natijalar usulning amaliy qo'llanishini namoyish etadi.



3-rasm. Kvartiralar bo'yicha agregat RPPI dinamikasi

Hududiy kesimdagi tafovutlar bozorning likvidligi, bitimlar soni, yangi qurilish faolligi hamda narx shakllanish omillari bir xil emasligini ko'rsatadi. Shu bois yagona respublika indeksi bilan bir qatorda segment va hududlar kesimidagi ko'rsatkichlar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston uchun taklif etilayotgan integrallashgan metodik model.

Taklif etilayotgan integrallashgan model uch qatlamli tuzilishga ega: institutsional tayanch, hedonik hisoblash yadrosi va reliz-monitoring bloki. Ushbu tuzilma milliy amaliyot va xalqaro standartlarni uyg'unlashtirishga xizmat qiladi.

Modelga ko'ra, kvartiralar va hovlilar uchun alohida regressiya spetsifikatsiyalari qo'llanadi. Kvartiralar segmentida maydon, xonalar soni, qavat va joylashuv asosiy omillar sifatida qaralsa, hovlilar segmentida yer uchastkasi, bino turi va qo'shimcha atributlar ustuvor ahamiyatga ega.

Ma'lumot manbalari bo'yicha gibril yondashuv qo'llanadi: e'lon ma'lumotlari narx dinamikasini aniqlash uchun, bitimlar va qo'shimcha kuzatuvlar esa vaznlash hamda hududiy kalibrlash jarayonlarida foydalaniladi.

Sifat nazorati alohida majburiy bosqich sifatida kiritilib, yetishmayotgan qiymatlar ulushi, strata bo'yicha kuzatuvlar soni, chet qiymatlar, Adjusted R^2 ko'rsatkichi hamda koeffitsiyentlar ishorolari muntazam ravishda tekshirib boriladi.

3-jadval. Integrallashgan model uchun tavsiya etiladigan ko'rsatkichlar va monitoring metrikalari

Yo'nalish	Asosiy ko'rsatkich	Nazorat mezon	Relizdagi aks ettirish shakli
Ma'lumot qamrovi	Har stratadagi kuzatuvlar soni	Minimal kuzatuv chegarasi va davriy o'zgarish	Qisqa metodik eslatma va texnik ilovada
Narx darajasi	Median va mean narxlar	Ikki ko'rsatkich o'rtasidagi farq	Grafik va jadval ko'rinishida
Model sifati	Adjusted R^2 , koeffitsiyentlar signali	Iqtisodiy ma'no, barqarorlik, belgilar testi	Texnik ilovada va ichki audit faylida
Outlier nazorati	Cook's Distance bo'yicha ulush	4/n yoki tasdiqlangan chegara qiymati	Qisqacha izoh ko'rinishida
Vaznlash	Qatlam bo'yicha xarajat ulushi	Notarial son $\times$ e'lonlar narxi	Yillik yangilanadigan jadval
Disseminatsiya	Umumiy, birlamchi, ikkilamchi, hududiy indekslar	Qator uzluksizligi va orqaga qayta hisoblangan qatorlar	Choraklik reliz va veb-jadval

Modelning muhim tarkibiy qismlaridan biri — reliz va kommunikatsiya siyosatidir. Foydalanuvchi nafaqat yakuniy indeks ko'rsatkichini, balki qisqa metodik izoh, qamrov doirasi, ma'lumot manbalari hamda asosiy cheklavlar haqida ham aniq va tushunarli axborot olishi maqsadga muvofiqdir.

Institutsional joriy etish bosqichlari va risklar. Yangi metodologiyani joriy etish bosqichma-bosqich amalga oshirilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Jumladan, pilot hisoblash, parallel test, rasmiy joriy etish va post-audit bosqichlari o'zaro izchil bog'liq holda bir-birini to'ldiradi.

4-jadval. Ekspert tavsiyalarini joriy etish bo'yicha ustuvor yo'l xaritasi

Muddat/bosqich	Tavsiya	Kutilayotgan natija
1-bosqich	Kvartiralar uchun sirg'anchiq oyna va Cook's Distance protseduralarini standart kompilyatsiya sikliga qo'shish	Qatorlar sifatini oshiradi va outlierlar bilan ishlashni tizimlashtiradi
2-bosqich	Notarial tranzaksiya sonlari bilan vaznlarni qayta hisoblash	Urban markazlar bo'yicha ortiqcha og'irlik muammosini yumshatadi
3-bosqich	Hovlilar uchun alohida regressiya spetsifikatsiyasini ishlab chiqish	Kvartira va hovli bozoridagi sifat farqlarini to'g'ri aks ettiradi
4-bosqich	Metodologik hujjat, yuklab olinadigan data va qayta dizayn qilingan relizni e'lon qilish	Shaffoflikni va foydalanuvchi ishonchini kuchaytiradi
Doimiy	Model diagnostikasi, metadata audit va xodimlar malakasini oshirish	Metodik barqarorlik va qayta ishlab bo'ladigan natijalarni ta'minlaydi

Asosiy risklar ma'lumotlar sifati, hududiy vakillilik, modelning murakkablik darajasi hamda reliz kommunikatsiyasidagi uzilish ehtimollari bilan bog'liq. Shu bois risklarni boshqarish mexanizmlarini metodikaning o'ziga integratsiya qilish maqsadga muvofiqdir.

Integrallashgan modelning ustunligi shundaki, u eski metodikaning amaliy soddaligini saqlagan holda, yangi metodikadagi hedonik regressiya, rolling window va sifat nazoratini yagona tizimga birlashtiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda uy-joy narxlari indeksini hisoblash metodologiyasidagi asosiy o'zgarish stratifikatsiya va o'rtacha narxlar yondashuvidan hedonik regressiya usuliga o'tish bilan bog'liq. Aynan ushbu yondashuv sifat farqlaridan tozalangan, xalqaro standartlarga yaqin, sifat o'zgarmagan sharoitdagi narx dinamikasini ifodalovchi indeksni shakllantirish imkonini beradi.

Taklif etilgan model milliy statistikaning amaliy imkoniyatlari, uy-joy bozorining hududiy va segmental xususiyatlari hamda xalqaro RPPI standartlari talablarini uyg'unlashtiradi.

Shu bois time-dummy hedonik regressiya rasmiy kompilyatsiya jarayonida qo'shimcha element sifatida emas, balki metodologiyaning asosiy hisoblash usuli sifatida qaralishi maqsadga muvofiqdir.



Amaliy jihatdan kvartiralar bo'yicha hedonik regressiya asosidagi hisoblashni 2026-yildan boshlab standart rejimda joriy etish, hovlilar segmenti uchun alohida model ishlab chiqish hamda relizlar bilan bir qatorda qisqa metodik izohlarni e'lon qilib borish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. (2024). Uy-joy narxlari indekslarini hisoblash bo'yicha uslubiy nizom. 19-aprel 2024-yil buyruq ilovasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. (2025). Kvartiralar bo'yicha sirg'anchiq oyna, bazaga bog'lash va agregatsiya jadvallari. Uslubiy material.
3. Eurostat, ILO, IMF, OECD, UNECE, World Bank. (2013). Handbook on Residential Property Prices Indices (RPPIs). Luxembourg: Publications Office of the European Union.
4. International Monetary Fund. (2026). Republic of Uzbekistan: Report on Residential Property Price Index. Technical Assistance Report. February 2026.
5. Casey, B. (2025). Reports on technical assistance missions on residential property price indices for Uzbekistan, 2-6 June and 10-14 November 2025. Expert materials.
6. Central Statistics Office Ireland. (2025). Residential Property Price Index - Survey Background Notes. CSO Ireland.
7. Central Statistics Office Ireland. (2025). Residential Property Price Index - Survey Information/Methodology. CSO Ireland.
8. International Monetary Fund. (2019). Residential Property Price Index (RPPI) Practical Compilation Guide. IMF.
9. Patrick, G. (2017). Redeveloping Ireland's Residential Property Price Index (RPPI). Ottawa Group Meeting, 10-12 May 2017, Eltville, Germany.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. (2025). Hovlilar bo'yicha uy-joy narxlari indeksini hisoblashga doir metodik yondashuvlar. Ishchi uslubiy material.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. (2025). Uy-joy bozorida ma'lumotlarni tozalash, filtrlash va validatsiya qilish bo'yicha ichki yo'riqnoma. Uslubiy tavsiyalar.
12. Eurostat. (2013). Handbook on Residential Property Price Indices: Sources and Methods. Methodological guidance.
13. OECD. (2013). Residential Property Price Indices in OECD statistics: methodological considerations. OECD working material.
14. International Monetary Fund. (2025). Technical Assistance Mission on RPPI Compilation in Uzbekistan: Mission Recommendations Summary. IMF working material.
15. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. (2026). Uy-joy narxlari indeksini e'lon qilish va metodik kommunikatsiya bo'yicha tavsiyalar. Amaliy qo'llanma.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100